TO‘RA SULAYMON SHE’RIYATIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLAR

Roziqova Jasmina Shuhrat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tillarni o‘qitish fakulteti talabasi
Roziqova.jasmina@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqola To‘ra Sulaymon va uning ijodidagi ayrim she’rlar va she’riy parchalar, xususan, “Gul bir yon, chaman bir yon” she`riy to‘plamidagi ba’zi qismlarda shoirning dialektalogiyaga oid so‘zlarni qo‘llash mahorati haqida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: To‘ra Sulaymon, she’r, sheva, shoir, ijod, dialekt, parcha, lahja.

She’riyat - inson ruhining eng nozik tovushi, qalbning eng chuqur sukunatidan tug‘ilgan so‘zdir. Har bir she’r - bu yurakning ichki olami bilan olam o‘rtasidagi ko‘prik, ko‘rinarli so‘zlar ortidagi ko‘rinmas hisdir. Shoir so‘z bilan emas, tuyg‘u bilan yozadi; u so‘zlarni yaratmaydi, balki ularni his qiladi. She’riyat - bu insonning sukutdagi hayqirig‘i, ko‘z yoshidagi nur, tabassumdagi og‘riqdir. U hayotning tashqi shovqinidan emas, ruhning ichki jimligidan tug‘iladi. Shu boisdan ham she’r - vaqtga sig‘maydigan, lekin har davrga tegishli san’atdir. She’riyatni anglash - bu insonning o‘zini anglashidir. Chunki har bir satr, har bir misra aslida shoirning emas, insoniyat ruhining so‘zlaridir. Bir gap bilan aytganda she`riyat-ma`naviyatni yuksaltiruvchi eng kuchli vositalardan biri. Birinchi prezidentimizning quyidagi so‘zlari ham aynan ma’naviyatga oiddir: “Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va Jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi” [1, 7].

“Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami [2, 60]. Navoiyning ushbu jumlasiga xos va mos tarzda umr kechirgan va ijod qilgan adib To‘ra Sulaymondir. Xalq yuragidan chiqqan shoir, deya ta’riflangan To‘ra Sulaymon mazmunli umri davomida o‘zining she’riy qalami bilan o‘quvchilar ko‘nglidan joy olgan yetuk insondir. Uning sodda va barcha uchun birdek manzur bo‘lgan satrlari yillar davomida ma’lum va mashhurdir. Shoir ijodida mehr, sadoqat, Vatanga muhabbat, onaga ehtirom kabi insoniyli tuyg‘ulari asosiy o‘rinni egallar ekan, “Istar ko`ngil”, “Men qayga borar bo`lsam”, “Iltijo”, “Qorako‘zginam”, “Sirdaryo qo`shiqlari”, “Gul bir yon, chaman bir yon” kabi bir qancha to‘plamlarini o‘qib bunga amin bo‘lamiz. Quyida “Armon she’ridagi parchaga e’tibor beraylik:

Xeshlarimning bemavrid
Ko‘zlarida yosh ko‘rsam,
Ko‘nglimda armon yotar
terskaydagi qor misol…

Bu yerda “xesh” va “terskay” so‘zlari shevaga oid so‘zlardir. “Xesh” qipchoq lahjasiga oid so‘z bo‘lib, adabiy tildagi ma’nosi “qarindosh-urug” deganidir. Xususan, qozoq tilida “xesh-zhurt”, qoraqalpoq tilida “xesh” so‘zlari huddi shu qarindosh ma’nosida qo‘llaniladi.

“Terskay” so‘zi ham qipchoq lahjasiga oid bo‘lib, adabiy tilda “tog‘ning soyali qismi” ma’nosida keladi.

Huddi shu she’rning boshqa baytiga nazar tashlaymiz:
Aro yo‘lda qolguday bo‘lsa biror yo‘ldoshim,
Manzilga yetmay turib, qoqilsa qayg‘udoshim,
Muhtoj bo‘lsa kimgadir, jon ayamas ***qurdoshim,***
Badkor degan nom olsa biror bir vatandoshim…

Parchada ajratib ko‘rsatilgan “qurdosh” so‘zi qipchoq lahjasiga oid shevaga xos so‘z bo‘lib, “qardosh” (do‘st, birodar) so‘zining fonetik variantidir.

To‘plamdagi “O‘xshar” she’rining

Kelinchak bor uyning ko‘rki bo‘lakcha,

Boshida ukpari, ***bo‘rki*** bo‘lakcha…

“Bo‘rk” so`zi ilk marta adabiyotda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida uchraydi. Adabiy nutqdagi ma’nosi esa “qalpoq”, “bosh kiyim”dir.

To‘ra Sulaymonning ijodidan bir chimdim tahlil qilar ekanmiz beixtiyor Ozod Sharafiddinovning quyidagi jumlalarini eslaymiz: “To‘ra Sulaymon bizga juda kerak odam edi. Bizning hayotimiz uchun zarur bo‘lgan odam edi, mafkuramiz uchun zarur bo‘lgan odam edi”[6, 38].

“O‘zbek she’riyatida ruhiy tasvir ko‘rinishi va tamoyllari turli davrlarda turli shakllarda zohir bo‘lgan. Chunki she’riyat davr nafasi, o‘sha davr kishisi ruhiy olamida kechuvchi Jarayonlarning lirik qahramonlarning ruhiy dunyosi bilan uyg‘un manzaralaridan yaraluvchi san’at mulkidir. Shuning uchun she’riyatdagi ruhiyat tasviri xususiyatlarini davr xarakteridan ajralgan holda tasavvur etish yoki tadqiq qilish haqiqatga muvofiq kelmaydi. Shu nuqtayi nazardan turib, ishda XX asr o‘zbek she’riyatining har bir taraqqiyot bosqichiga xos bo‘lgan ruhiyat tasvirining namoyon bo‘lish darajalari uning lirik she’riyat rivojidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga harakat qilindi [4]. Ushbu ma’lumotlarga uyg‘un tarzda ijod qilgan To‘ra Sulaymonning navbatdagi “Ayro” she’ridagi parchani havola qilamiz:

Nor qo‘zg‘alar bo‘ldi o‘rnidan

Moya *qoldi moyaligicha…*

Qipchoq lahjasiga oid “moya” so‘zi adabiy tilda “urg‘ochi hayvon” ma’nosida qo‘llaniladi. To‘ra Sulaymon esa o‘z shevasida moya deya yozadi. Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Sensiz yolg‘iz, g‘arib qoldim” kitobida keltirgan “Chin ijodkorning ikki umri bo‘ladi. Biri - barcha qatori “besh kunlik” deb atalguvchi hayot, ikkinchisi – o‘zi o‘tganidan so‘ng asarlarida davom qiladigan yozuvchilik umri…To‘ra Sulaymon el nazaridagi shoir edi. Uning bitganlari hayotligidayoq ko‘p bosilgan, kuylangan ular haqda yozilgan. Uning chop qilinmay qolib ketgan asarlari juda ko‘p emas. To‘ra aka o‘z bitiklariga aslo beparvo emasdi. U juda uzoq yillar oldin yozilgan va bosib chiqarilgan asarlarini ham qayta-qayta ko‘zdan kechirib, lozim o‘rinlarini tahrir qilardi…” [3, 5] jumlalarga nazar tashlar ekanmiz, To‘ra Sulaymonning yozuvchilik umrining mevalari naqadar shirin va barakali ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shoirning “Bolajon” she’rida

Ko‘ngilga ***yovuqsan*** *ko‘z bilan qoshday,*

G‘ubori yo‘q tongda chiqqan quyoshday…

“Yovuq” so‘zi qipchoq lahjasiga oid so‘z bo‘lib adabiy tilda “juda chiroyli”, “istarali”, “ko‘ngilga yaqin”, “yoqimli” ma’nolarida kela oladi.

To‘ra Sulaymon ijodining asosiy qismini uning she’rlari tashkil etadi. Qo‘shiqchi shoir sifatida e’tirof etiladigan To‘ra Sulaymon she’riyati ohangdorligi hamda ritmning xalqona ohanglarga yaginligi bilan xarakterlanadi. Uning she’riyatga oid qalami 1960-1975 yillargacha tebranib turdi. Ernest Hemingueyda bunday hazilomuz gap bor: “Yozuvchi bo‘lish uchun iste’dod bilan baxtsiz bolalik kifoya qiladi”. Huddi shunday Baxmalning Aldashmon qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan shoir yozuvchilik, shoirlik, bir ma’noda insoniylik tuyg‘ulariga tom ma’noda mos umr kechirdi, deb bemalol aytish mumkin.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, To‘ra Sulaymon ijodi o‘zbek xalqining ruhiy olami, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini she’riy ifoda etgan noyob manbalardan biridir. Uning she’riyatida qo‘llanilgan shevaga xos so‘zlar xalq tilining tabiiyligini, jonliligini va o‘ziga

xos ohangdorligini saqlab qoladi. Bu so‘zlar orqali shoir xalq hayotini, urf-odatlarini va ichki kechinmalarini yanada yaqinroq ifodalagan. Shevaga xos birliklarning badiiy matnda ishlatilishi asarlarga samimiyat, tabiiylik va milliy ruh baxsh etadi. Shu bois Tora Sulaymon she’riyatini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalqning madaniy boyligini anglash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodidagi shevaga xos so‘zlar o‘zbek adabiy tilining boyligiga boylik qo‘shib, milliy she’riyatimizni yanada rang-barang va ifodali qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov I. Istiqlol va ma`naviyat. -Toshkent.1994. -128 b.

2. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”

3.Yo‘ldoshev Q. Sensiz yolg`iz g`arib qoldim. -Toshkent. -14 b.

4. https://share.google/uuxH4CXsdgqWZbidn

5.Sulaymon T. Gul bir yon, chaman bir yon (she`rlar). -Toshkent,2023. -26 b.

6.Sharafiddinov O. Uch maqola. Tafakkur jurnali.10-son.